



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

milliy tiklanish



Ilm va madaniyatdan uzoqlashib borayotganlar to'g'ri xulosa chiqarishsin

3s

Arxeologik madaniy meros obyektlari davlat muhofazasida



4s

Prezident tomonidan qonun loyihasi qaytarildi

Daraxtlarni kesishdan emas, aksincha, ularni asrab qolishdan manfaatdorlik bo'lishi kerak

Davlat rahbarining hududlardagi uchrashuvlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining ham ishtirok etayotganlari sezilarli natijalarga asos bo'lyapti. Ya'ni, yangi davrda parlamentning o'rnini kuchaytirilishi uchun eng avvalo, ularning dunyoqarashlari, u yoki bu muammoga munosabatlari o'zgarishi talab etilyaptiki, bunga hududlardagi uchrashuvlarda muhokama etilayotgan dolzarb masalalar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etyapti, deyish mumkin.



2s

O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI QANDAY BAJARILMOQDA?



Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, imkon qadar muqobil energiya manbalarini joriy etish nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda dolzarb bo'lib turgan masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)da belgilangan dolzarb vazifalar ichida energiya samaradorligini kuchaytirish va muqobil energiya manbalarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda BRMni bajarish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda Oliy Majlis Senatida O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi tashkil etilgan. Mazkur Parlament komissiyasining navbatdagi majlisida ishchi guruh tomonidan Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida energiya samaradorligini kuchaytirish va muqobil energiya manbalarini joriy qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar holati bo'yicha o'tkazilgan o'rganishlar natijalari muhokama qilindi. Andijon viloyatida ijtimoiy soha obyektlarida 10,3 ming kVt quvvatli quyosh panellari, 9 ming litrli quyosh suv isitish uskunalari, tadbirkorlik subyektlarida 5 ming 629 kVt quvvatli va aholi xonadonlarida 10 ming 961 kVt quvvatli quyosh panellari, shuningdek, 25,9 ming litrli quyosh suv isitish uskunalari o'rnatilgan. Qashqadaryo viloyatida esa 1 ming 242 ta obyektida umumiy quvvati 12,9 MVt quvvatga ega quyosh fotoelektr panellari, 8,1 ming litrli geliokollektor, 193 ta tadbirkorlik subyektiga 6,2 MVt va 761 ta aholi xonadoniga 1,6 MVt quvvatli quyosh paneli hamda 4,8 ming litrli geliokollektor o'rnatilgan.

(Davomi 2-betda)

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR



YAPONIYADAGI O'ZBEK DEPUTATI «MILLIY TIKLANISH» MEHMONI

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashida Tokio shahridagi Setagaya tumani Assambleyasiga Yaponiya Konstitutsiyaviy demokratik partiyasidan saylangan deputat Orzugul Boboxo'jayeva bilan muloqot bo'lib o'tdi. Setagaya tuman Assambleyasi deputati O.Boboxo'jayeva taklif uchun partiya rahbariyatiga minnatdorlik bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlarini yuksak baholadi. Ayniqsa, u davlatimiz rahbari tomonidan «Inson qadri uchun» tamoyilini amalga tatbiq etish borasidagi tashabbuslar xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilayotganini alohida ta'kidlab, sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va turizm sohasidagi o'zgarishlarni katta qiziqish bilan kuzatib borayotganini bildirdi. O.Boboxo'jayeva dunyoda globalshuv jarayonlari qanchalar keskin kechmasin O'zbekiston va Yaponiyada milliy qadriyatlarini qadrlash, oilaviy an'analarni saqlab qolish, urf-odatlarini rivojlantirish va o'zlikni asrab borasida uyg'unlikka erishishda har ikkala davlatning o'ziga xos tajribasi borligi haqida so'z yuritdi. Shuningdek, mehmon vatandoshlarimiz qayerda bo'lmasin o'z «Men»ini asrab qolishi muhim ekanini ta'kidlab, o'z faoliyati va bugungi yutuqlarida eng avvalo, oilasi hamda O'zbekistonning beqiyos ta'siri borligini mamnuniyat bilan qayd etdi.

(Davomi 2-betda)

» TOSHKENTDA KIMLARDIR O'Z MANSABI VA LAVOZIMIDAN XAYRLASHMOQCHI SHEKILLI...

6s

OSMONLARDA UCHGAN

» YULDUZLAR... 7s



TUBANKLIK SARI «DADIL ODIMLAYOTGANLAR» 4s



BOYSUNGA TARALGAN KINO YOG'DUSI

O'zbekiston xalq yozuvchisi, publitsist va dramaturg Erkin A'zam o'zbek adabiyotiga o'z gacha badiiyat olib kirgan bo'lsa, uning asarlari asosida o'zbek kino san'ati yanada boyidi. Aytish mumkinki, Erkin A'zam qalamiga mansub kinossenariylar asosida yaratilgan filmlar o'z davri uchun ham, keyingi davr uchun ham dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Erkin A'zam asarlari asosida ilk marta to'qsoninchi yillarda «Chantramore» (1990) va «Piyoda» (1998) filmlari suratga olingan bo'lib, keyinchalik «Dilxiroj» (2001), «Erkak» (2003), «Zabarjad» (2007), «Jannat qaydadir» (2008), «Suv yoqalab» (2009), «Qarzdor» (2010), «Parizod» (2012), «Xonadon egasi» (2013), «Tanho qayiq» (2019) kabi filmlar yaratildi. Ana shu filmlar yozuvchi Erkin A'zanni kino ssenarist sifatida ham elga tanitdi. Lekin, rejissyor Yusuf Roziqov suratga olgan «Dilxiroj» filmi bundan yigirma yillar avvalgi

kinomuxlislar tomonidan o'ziga xos topilma sifatida qabul qilinganini alohida ta'kidlash joiz. Hanuzgacha teleekranda bot-bot namoyish etiladigan mazkur film ssenariynavis E.A'zam va rejissyor Yu.Roziqovning tandemi o'zbek kino san'atini samarali natijalarga olib chiqishi mumkinligini bashorat qilgandek edi. Ilk marta Boysunning go'zal tabiati, boysunliklarning ajoyib urf-odatlari, azaliy milliy qadriyatlari, Surxondaryo tog'larining shabnamdek pokiza havosi bilan kinokamera obyektiv yordamida tanishgan tomoshabin «Dilxiroj»ni sevib qolganiga shubha yo'q. Raqibini yengmagunicha sahardan tungacha kurash tushgan film bosh qahramoni Toshtemir (aktyor Alisher Hamroyev)ning bir oz ters, bir oz jaydari, yoshi ulug'larga mehr-muruvvatli, sevgilisi Sanamga nisbatan esa otash qalbining badiiy ifodasi film qahramonlari yashayotgan makonga mos edi.

(Davomi 5-betda)

3 YANGI TIZIMDA MUAMMOLAR

7



QADIM FARG'ONA OTLARINING QANOTLARI BO'LGANMI?

Qadimgi Farg'onaning dul-dul samoviy arg'umog'lar haqida eshitganmisiz? «Ot minganga insu jinlar yaqinlasha olmaydi, chunki otta dev bo'lib, insu jinlar otning devidan qo'rqadi», degan naqlinchi? Afsonalarga ko'ra, qadim Farg'ona otlariga jinlar ham yaqinlasha olmas ekan...



«Daraxtlarni kesishdan emas, aksincha, ularni asrab qolishdan manfaatdorlik bo'lishi lozim. Bunday madaniyatning shakllanmagani uchun kesishni taqiqlasak, quritish yo'lini topadi, quritishni taqiqlasak boshqa yo'lini topadi»

FRAKSIYADA

(Boshlanishi 1-betda)

PREZIDENT TOMONIDAN QONUN LOYIHASI QAYTARILDI

Daraxtlarni kesishdan emas, aksincha, ularni asrab qolishdan manfaatdorlik bo'lishi kerak



Xususan, deputatlarga joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida xalq bildirilmoqda va shundan kelib chiqib, shu kunlarda quyi palata deputatlaridan iborat ishchi guruhlar hududlarda o'rganishlar olib boryapti.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi avvalida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Buxoro viloyatiga tashrifi yakunlari haqida so'z yuritildi. Partiya Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirovning ta'kidlashicha, mavjud muammolarning aksariyati qonunchilik bilan bog'liq va endi ularning yechimi bo'yicha aniq takliflarni shakllantirish kerak. Shundan keyin fraksiya a'zolari kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalarni muhokama qilishga kirishdilar. Dastlab, «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida»gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi. Qayd etilishicha, ushbu qonun loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning 17-yanvarida qabul qilingan, 3-mayda esa Senat tomonidan ma'qullangan. Biroq 18-iyulda O'zbekiston Prezidenti tomonidan qaytarildi. Bunga bir qator omillar, xususan, daraxt va butalarni qonunga xilof ravishda kesish uchun belgilangan javobgarlikni xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda yanada kuchaytirish, noqonuniy kesilgan daraxt o'rniga kompensatsiyaviy daraxt ekish masalasini qonun darajasida tartibga solish va kompensatsiyaviy ko'chatlarni ayni daraxt kesilgan joyga ekish majburiyatini belgilash, shuningdek, yuridik shaxslarga nisbatan moliyaviy jarimalarni qo'llash taklifi bildirilgani aytilyapti. Senat tomonidan ma'qullangan qonun loyihasida endilikda daraxtlar, butalar, boshqa o'simliklar va yosh nihollarni noqonuniy kesish, ildizi bilan sug'orish, shikastlash,

nobud qilish yoki ko'chirib o'tkazish uchun fuqarolarga BHMning 10 baravaridan 15 baravarigacha (avval 5 baravaridan 10 baravarigacha edi), mansabdor shaxslar uchun esa 15 baravaridan 20 baravarigacha (avval 10 baravaridan 15 baravarigacha edi) jarima belgilangan edi. Agar bunday holatlar bir yil davomida takror sodir etilsa fuqarolar 25 baravarigacha, mansabdor shaxslar esa 35 baravarigacha jarima to'lashlari kerak edi.

tutilgan xolos. – Daraxtlarni kesishdan emas, aksincha, ularni asrab qolishdan manfaatdorlik bo'lishi lozim. Bunday madaniyatning shakllanmagani uchun kesishni taqiqlasak, quritish yo'lini topadi, quritishni taqiqlasak boshqa yo'lini topadi, – dedi Alisher Qodirov. Yig'ilishda ushbu qonun loyihasi tegishli qo'mita tomonidan Davlat rahbari takliflari hamda xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda qayta tahrir qilinishi, maromiga yetkazilishi ma'lum qilindi.

joriy etildi. Biroq keyingi yillarda bu borada bir qator kamchiliklar aniqlanmoqda. Jumladan, Oliy sudning vakolatlari kengaytirilishi evaziga ishlarni hal etishda viloyat va unga tenglashtirilgan sudlar xizmatidan samarali foydalanish imkoniyati mavjud emasligi oqibatida Oliy sudda ishlarni ko'rish hajmi keskin ortgan. Misol uchun, Oliy sudning Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2020-yilda 640 ta ish ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 3 377 tani, 2022-yilda esa 3 601 tani tashkil etgan. Sudyalarning ish hajmi va yuklamasi ham oshib bormoqda va bu ishlarning ko'rish sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Ish hajmining ortishi esa fuqarolarning ortiqcha sarf-xarajat qilishiga, sudma-sud sarson bo'lishiga sabab bo'lyapti. Va, bu tabiiy ravishda fuqarolarda sudga nisbatan norozi kayfiyat uyg'unlashiga olib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur kamchiliklarni hal qilish maqsadida Fuqarolik protsessual kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda. Jumladan, viloyat va unga tenglashtirilgan sudlarda ishlarni apellyatsiya yoki kassatsiya va taftish tartibida ko'rish bosqichlari, Oliy sudda ishlarni taftish tartibida va Oliy sud Rayosatida qayta ko'rib chiqish amaliyoti joriy etilmoqda. Yig'ilishda deputatlar tomonidan «Shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma'muriy tartib-taomillarning takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi ham birinchi o'qishda ko'rib chiqilib, ma'qullandi. Ushbu qonun loyihasi

shaharsozlikda davlat xizmatlarini ko'rsatishda aniqlangan muammolar, normativ hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, Shaharsozlik kodeksining 21 va 22-moddalaridan jiro etuvchi hokimiyat organlarining shaharsozlik faoliyati obyektlarini qurish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatini chiqarib tashlash taklif etilmoqda. Bundan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonunchilikka nomuvofiq tarzda yer uchastkasi ajratilishiga yo'l qo'yilmoqda. Yer kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi 6243-sonli farmoniga asosan qishloq va noqishloq yer uchastkalarini ajratishning mutlaq yangi tartibi joriy qilingan. Taklif etilayotgan loyihaga ko'ra, endilikda shaharsozlikdagi barcha xizmatlar Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladi. Tadbirkorlar, fuqarolar bu borada davlat organi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqaga kirishmaydi. Barcha ishlar elektron tarzda amalga oshiriladi. Sodda qilib aytganda, fuqaro biron bino qurmoqchi bo'lsa, hokimliklarga bormay belgilangan tartibda DXM orqali ruxsatnoma oladi. Endi buning uchun hokim qarori shart emas. Ma'lumotlarga qaraganda, hokimliklar tomonidan «E-qaror» tizimi orqali 586 ta holatda qonunchilikka nomuvofiq ravishda qurilishga ruxsat berish va rekonstruksiya qilish to'g'risida qarorlar qabul qilingan. Shuningdek, noqonuniy yer ajratish holatlariga yo'l qo'yilgan.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

Oliy sudning Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan
**2020-YILDA 640 TA ISH KO'RIB
CHIQUILGAN BO'LSA, 2021-YILDA
BU KO'RSATKICH 3 377 TANI,
2022-YILDA ESA 3 601**
tani tashkil etgan.

Fraksiya a'zolarining qayd etilishicha, ushbu qonun loyihasi Davlat rahbari tomonidan bejizga qaytarilgani yo'q. Chunki bugun ekologiya bilan bog'liq muammolar tobora murakkablashib bormoqda. Noqonuniy tarzda daraxt kesganlik uchun AQSHda 100 ming, Fransiya 150 ming, Saudiya Arabistonida esa 8 million AQSH dollarigacha jarima belgilangan, hatto aybdor 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi ham mumkin. O'zbekistonda esa bu harakat uchun atigi 1000 AQSH dollarigacha jarima ko'zda

«Sud qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi. Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda odil sudlovni ta'minlash borasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish maqsadida sudlar faoliyatida «bir sud – bir instansiya» tamoyili

✓ Jarayon

(Boshlanishi 1-betda)

YAPONIYADAGI O'ZBEK DEPUTATI «MILLIY TIKLANISH» MEHMONI



Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, vatandoshimiz nomzodi qo'yilgan sal kam bir million aholiga ega, Tokioning 23 ta tumani orasida eng kattasi bo'lgan Setagaya tumanida 23 mingdan ortiq yaponiyalik bo'lmagan aholi istiqomat qiladi. Orzugul Boboxo'jayeva aynan ana shu aholi orasidan 6771 ovoz to'plab, 50 ta ochiq o'rin uchun kurashgan 75 nomzod orasida to'qqizinchi o'rinni egalladi. Muloqot davomida O.Boboxo'jayeva boshqaruvda xotin-qizlarning o'rni va roli, ularning siyosiy faolligini oshirish masalalari, saylovlardagi muvaffaqiyatga

yetaklovchi omillar va bu borada to'plagan amaliy tajribalari bilan ham o'rtoqlashdi. Suhbat yakunida partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari F.Muhammadjonova O.Boboxo'jayevani saylovlardagi g'alabasi bilan tabriklab, partiyaning «Vatandosh bilan suhbat» hamda «Ayol va siyosat» media loyihalariga taklif etdi. Uchrashuv yakunida ana shu loyihalarda hamkorlik qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Alisher ARIPOV,
partiya Markaziy kengashi
bo'limi boshlig'i

✓ Kuting!

Dilnoza AZIZOVA,
partiyaning Namangan viloyati Kengashi raisi

«MUSTAQILLIK
ODDIY HODISA EMAS,
OZODLIK HAQIDA HAYAJONSIZ
GAPIRIB BO'LMAYDI HAM»

Kelgusi sonlarda



(Boshlanishi 1-betda)

O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI QANDAY BAJARILMOQDA?

Energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish borasida targ'ibot-tashviqat ishlarining sustligi hamda narxlarning yuqoriligi oqibatida Andijon viloyatidagi aholi xonadonlarida 28 ming 800 kVt o'rniga 10 ming 961 kVt (rejaga nisbatan 38 foiz), Qashqadaryo viloyatida 7.4 ming kVt o'rniga 1 ming 871 kVt (rejaga nisbatan 25 foiz) quyosh panellari o'rnatilgan, xolos. Qolaversa, Qashqadaryo viloyatidagi 691 ming 570 ta aholi xonadonida energiya tejoychi lampalar o'rniga qariyb 1 million 245 ming dona cho'g'lanma lampalardan foydalanib kelinmoqda. Buning natijasida yiliga 60,3 milliard so'mlik 204 million kVt elektr energiyasi tejalmay kelinayotgani qayd etildi. Majlisda barqaror rivojlanish sohasidagi yana bir masala - ko'p qavatli uylar, maishiy-xo'jalik va sanoat korxonalaridan chiqadigan maishiy oqova suvlarini tozalash bo'yicha Toshkent viloyati va Toshkent shahrida olib borilayotgan ishlar holati ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, Toshkent viloyatining 16 tuman va shahriga 9 ta, Toshkent shahrining 12 tumaniga 3 ta oqova suv tozalash inshootlari xizmat ko'rsatadi. Ushbu inshootlardan 7 tasi ish samaradorligi bo'yicha talabga javob bermaydi. Tozalash inshootlaridan tabiiy

muhitga oqizilayotgan oqova suvlardagi zararli moddalar belgilangan me'yordan ortiq. Masalan, azot ammoniy 2-3 marta, fosforitlar 7 marta va muallaq moddalar 1,5 martagacha ko'p. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan qator taklif va ko'rsatmalar berilib, aniq vazifalar belgilandi. Jumladan, yer osti suv manbalari suvining sifati holatini muntazam kuzatib borish, ulardagi suv sifati o'zgartirish hamda ishlatilgan suv miqdori haqida tahlil qilib borish, ichimlik suvi sifatida foydalaniladigan muqobil suv manbalarini (buloq, quduq, huvuz, yer osti suvlari va boshqalar) qayta ro'yxatdan o'tkazish va ular zaxiralarning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilandi. Shuningdek, «Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida»gi qonunni yangi tahrirda ishlab chiqish, respublikaga import qilinayotgan quyosh panellari narxlarini tahlil qilish, ushbu mahsulotni aholi uchun qulay narxlarda xarid qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish yuzasidan qator vazifalar topshirildi. Muhokama yakunida Parlament komissiyasining tegishli qarorlari qabul qilindi.

N.ABDURAIMOVA, O'ZA



O'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba tariqasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirish yo'lga qo'yildi. Bu yil esa tashabbus respublika bo'yicha ommalashtirilmoqda.

...MUAMMOLAR ortida ayol bor

Xabaringiz bor, «Ayollar qanoti» tashabbusi bilan siyosatga qiziquvchi xotin-qizlar uchun «Siyosatga marhamat» loyihasi doirasida deputat ayollar bilan mahorat darslari o'tkazilmoqda. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Tursunoy Muratova loyihaning navbatdagi mehmoni bo'ldi.



«Bu siyosat, qizim, siyosat», deb qo'yardilar. «Siyosatning o'zi nima?», deya yana savolga tutganimda, dadamning: «Siyosat – bu hayot ko'zgusi» deya bergan javobi sohaga bo'lgan qiziqishimni oshirgan.

– Siyosatga qachon kirib kelgansiz?
– Pedagoglar oilasida tug'ilganman. Dadam o'qituvchi bo'lgani uchunmi, juda ko'p o'qirdilar. Xonadonimizda ko'plab gazeta va jurnallari kelardi. Ularni o'qib, tushunolmagan so'zlarimning ma'nosini dadamdan so'rasam: «Bu siyosat, qizim, siyosat», deb qo'yardilar. «Siyosatning o'zi nima?», deya yana savolga tutganimda, dadamning: «Siyosat – bu hayot ko'zgusi» deya bergan javobi sohaga bo'lgan qiziqishimni oshirgan. Maktabimizda ham har seshanba «Siyosiy o'quvlar» o'tkazilardi. Lekin kun kelib siyosatchi bo'lishni hayolimga ham keltirmaganman. O'qituvchilik faoliyatim mobaynida meni «ustoz» deya e'zozlashgan bo'lsa, bugun «siyosatchi ayol» degan nom olganimdan faxrlanaman. Siyosatning esa o'ziga yarasha mashaqqati va haqiqati borligini Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi faoliyatim davomida his qildim.

– Siyosatda ayollarning o'rnini qanday baholaysiz?
– Bugungi siyosiy jarayonlarda xotin-qizlarning o'rni juda muhim. Ma'lumki, biz deputatlarga aholidan tushayotgan murojaatlarning aksariyati ijtimoiy masalalar bilan bog'liq. Ijtimoiy muammolar ortida esa asosan ayol turadi. Ayol dardini esa ayol ko'proq his qiladi. BMT tahlillariga ko'ra, xotin-qizlarning parlamentdagi ulushi 30 foizdan ortiq bo'lgandagina, ayollar manfaatlarini himoya qiladigan qonunlar yaratilishi uchun sharoit yaratilardi ekan.

– Saylovlar jarayonida deputatlikka nomzod sifatida biror muammo yoki to'siqlarga duch kelganmisiz?
– Ha, nomzod sifatida siz aytgandek to'siqlarga duch kelganman. Deputatlikka nomzodim qo'yilgach, odatimga ko'ra, eng avval, dadamdan maslahat so'radim. U kishi bu maqomga erishish uchun siyosiy bilimlarimni boyitishim, siyosatchilar davrasida ko'proq bo'lishim, nafaqat mamlakatimiz,

balki xalqaro miqyosdagi siyosiy jarayonlardan xabarador bo'lishim, eng asosiysi, Saylovoldi dasturimni nomzodim qo'yilgan okrugdagi muammolardan kelib chiqqan holda tayyorlashim lozimligini uqtirdilar... Saylovoldi targ'ibot uchrashuvlarimiz boshlanganida ma'lum sabablarga ko'ra, deputatlikka nomzodi qo'yilmagan bir ayol meni o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotga saylovchilar bilan uchrashuvga taklif qildi. Uchrashuvga jiddiy hozirlik ko'rib bordim. Ammo zal bo'm-bo'sh edi. Sababini so'raganimda undan: «Men aholini yig'madim, sizning qay darajada bilimga, salohiyatga ega ekanligingizni bilish uchun taklif qildim», degan javobni oldim. Shunda o'z oldimga: «Barcha raqiblarimni yengib, albatta, g'olib bo'laman!», degan aniq maqsad qo'ygandim...

– Saylovlarda g'alaba qozonishga oid tavsiyalariniz...
– Saylovlarda g'alaba qozonish yagona sharti saylovchi ishonchini qozonish.

– Siz havas qilgan siyosatchi ayol kim?
– Siyosat sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan barcha ayollarga, xususan, Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Narbayevaga havas qilaman. Xotin-qizlarga o'ta e'tiborligi, haqiqatgoyligi, lider ayollarga xos shijoati u kishining ibratli jihatlari deb bilaman.

– Deputatlik faoliyatingiz davomida qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritib oldingiz? Ijtimoiy tashabbuslaringiz bilan o'rtog'lashsangiz.

– Kasbim o'qituvchi bo'lgani bois maktablardagi muammolardan yaxshi xabardorman. Deputatlik faoliyatimning ilk kunlarida fraksiyamiz rahbari Alisher Qodirovning yoniga borib, maktablarda kuni uzaytirilgan guruhlar faoliyatini qayta yo'lga qo'yishga oid taklifimni bildirgandim. O'shanda farzandlari kun davomida maktabda, o'qituvchilar nazoratida bo'lgan ota-onalarning ishida unum bo'lishi, qolaversa, kollej

o'qituvchilarining bandligi ta'minlanishi, asosiysi, milliy o'yinlarimizni o'rgatish orqali yosh avlodni milliy qadriyatlar, urf-odat va ana'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash imkonini kengayishiga oid mulohazalarim bilan o'rtog'lashgandim. Raisimiz bilan fikrimiz bir joydan chiqib, qonunchilikka boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirishga oid taklif kiritdik. Guvohi bo'lganimizdek, o'tgan yili Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tajriba tariqasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqatlantirish yo'lga qo'yildi. Bu yil esa tashabbus respublika bo'yicha ommalashtirilmoqda. Ta'lim to'g'risidagi qonunga ham takliflar berganmiz. Unga ham rahbarlarimiz tashabbusi bilan bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

– Deputatlar yanada samaraliroq faoliyat ko'rsatishi uchun nimalarga e'tibor qaratishi kerak deb hisoblaysiz?
– Joylarga nazorat-tahlil tartibida o'rganishlarga ko'p chiqamiz, qonunlarning to'g'ridan-to'g'ri ishlashini nazorat qilamiz. Partiyamizda o'rnatilgan tartibga ko'ra, bu jarayonda mahalliy Kengash deputatlari biz bilan birga bo'lishlari lozim. Ya'ni, mavjud muammolarga birgalikda yechim topishimiz kerakligi belgilab qo'yilgan. O'sha paytdagi kuzatuvlarim asosida ayta olamanki, bugun mahalliy Kengashlar deputatlarining faolligini oshirish uchun partiya tomonidan siyosiy o'quvlar, «Mahorat darslari» tizimli tarzda tashkil qilinishi kerak.

– Oila siyosatdagi ayol uchun kuchmi yo'to'siq?
– Ikki nafar farzandim, turmush o'rtog'im va to'kis oilam borligiga shukr qilaman. Siyosiy faoliyatimda ham oilam doimo meni qo'llab-quvvatlab kelyпти.



Kuting' Navbatdagi mehmon Dilduzaxon Iminjonova



ILM VA MADANIYATDAN UZOQLASHIB BORAYOTGANLAR TO'G'RI XULOSA CHIQRISHSIN

«Zo'r tv» muxbirlariga «zo'r»ligini ko'rsatmoqchi bo'lganlar bilagi emas, bilimi, tajribasini to'g'ri ishga solganida ahvol shu darajaga borib yetmasdi.

Muhim qurilish obyektiga adashib kelib qolganini isbotlagan «mutaxassislar»ning kuchi ularga ko'zgu tutganlarni kaltaklashga yetibdi. O'ziga o'zi choh qazish shunchalik ham bo'ladimi? Bir tomondan, noprofessional xizmati bilan elning oldida yuzi shuvut bo'lgani yetmaganidek, ikkinchi tomondan kechirilmas xatosi ortidan yuzaga kelgan alamini

boshqarlardan olmoqchi bo'lganlarning ahvolini ko'rish bir paytning o'zida kulguli va o'ta ayanchlidir. Barcha aybdorlar qonun oldida va jamoatchilik ko'z o'ngida javob berishi shart. Toki, ilm va madaniyatdan uzoqlashib borayotganlar to'g'ri xulosa chiqarishsin.

Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari

BUGUNNING GAPI

YANGI TIZIMDA MUAMMOLAR

Xabaringiz bor, yaqindan boshlab, poytaxtimizning markaziy ko'chalarida avtobuslar uchun alohida harakatlanish yo'laklari tashkil etildi. Lekin bugun yangi tartibning qay darajada ishlayotgani nazorat qilinmayotgandek. Ma'lumki, xorijda ham avtobuslar harakatiga ustuvorlik beriladi. Masalan, AQSHda, Latviya va Avstriyada jamoat transportidan yo'lovchilar tushib-chiqayotgan bo'lsa, atrofdagi barcha avtomobillar birvarakayiga to'xtatilib, yo'lovchilarning xavfsiz harakati ta'minlanar ekan. Kim bunga amal qilmasa, avtobusdagi kameralar buni avtomatlashgan tarzda tegishli idoralarga yetkazadi va qoidani buzgan haydovchi jazolanadi. Hatto haydovchilik

guvochnomasidan bir necha yilga ayrilishi yoki 1000\$ dan 3000\$ gacha jarimaga tortilishi mumkin. Haydovchilarning fikricha, bunday qat'iy choralarga o'tishdan oldin avtobuslar harakati uchun yo'llar moslashtirilishi kerak. Ma'lumki, bugun yo'l ajratuvchi chiziqlar ham bir necha oyga qolmay o'chib ketyapti. Burilishni amalga oshiradigan ko'p joylarda esa noto'g'ri belgilar tushirilgan. Shuning uchun ham chiziqlarni chizish tartibi ham ko'rib chiqilishi kerak. Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, xorijda jamoat transporti haydovchilariga bekatlarga vaqtida yetib borishlari uchun kunlik grafik beriladi va avtobuslar shunga rioya etishadi. Bizda esa asosiy hujjat kunlik reja hisoblanadi. Haydovchi kunlik rejani o'ylab, sen

tez ketting, sen esa sekin yuribsan degan e'tirozlarni bildirmaydi. To'g'ri, har qanday jamiyatda yangi tizimni birdaniga amalga tatbiq etish mushkul. Shunday bo'lsa, mutasaddilar yuqoridagi holatlarga e'tibor qaratib, mavjud muammolarni bartaraf etsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Eng asosiysi, bekatlarga va avtobus yo'laklariga mashinalarini beparvo tashlab ketib yo'lovchiga noqulaylik tug'dirayotganlar qonun doirasida javobgarlikka tortilishi kerak.



Ayubxon Fayzullayev, partiya Markaziy kengashi bo'lim boshlig'i

PARTIYA FAOLIYATIDAN

Hisobot davrida partiya fraksiyasi a'zolari tomonidan saylovchilar bilan **600 dan** ortiq uchrashuvlar o'tkazilib, ularda **30 000** nafarga yaqin saylovchilar ishtirok etdi.

Hisobot davrida fraksiya a'zolari nomiga fuqarolardan **1309 ta** murojaatlar kelib tushdi. Jumladan, **905 ta yozma, 374 ta elektron, 30 ta og'zaki** shakldagi murojaat kelib tushgan bo'lsa, shundan **1203 ta murojaat** ko'rib chiqish uchun tegishlilik bo'yicha mutasaddi tashkilot va idoralarga yuborildi, **106 ta murojaatga** tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, joylarda:

- 300 ga yaqin xonadonlar;
- 44 ta tadbirkorlik subyektlariga tashrif buyurildi. Saylov okruglarida o'tkazilgan o'rganish va uchrashuvlar doirasida 2028 ta muammoli masalalar qayd etilib, shundan 1294 tasi ijobiy hal etildi. 582 tasiga tushuntirishlar berildi, 584 ta murojaat ko'rib chiqish uchun tegishlilik bo'yicha mutasaddi tashkilot va idoralarga yuborildi.

Hisobot davrida fraksiya a'zolarining **4715 marotaba OAVda** chiqishlari amalga oshirildi. Jumladan:
- 312 marotaba televideniya;
- 204 marotaba radioda;
- 328 marotaba matbuotda;
- 844 ta internet saytlarida,
- 3027 ta ijtimoiy tarmoqlarda.

Shaxnoza SULTANOVA
Yig'ma-axborot tahlil va dasturiy vazifalar monitoring bo'limi boshlig'i

Kuting!

MILLIYOLZARGA

ERTAK AYTAYOTGAN BANK

YOKI «ALOQABANK» BILAN ALOQAMIZ UZILGAN BO'LSA-DA, ALOQADA QOLAYOTGANLARNI OGOHLANTIRIB QO'YISH KERAK DEB HISOBLADIK

Kelgusi sonlarda

Arxeologik madaniy meros obyektlari davlat muhofazasida

Zaminimizning boy madaniyati va qadimiy tarixi necha asrlar davomida dunyo xalqlarining yurtimizga qiziqishini oshirib kelmoqda. Ayniqsa, qadimiy bino va inshootlar, arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamlar buyuk ajdodlarimizning yuksak aql-farosati, noyob iste'dodi, bunyodkorlik salohiyatini namoyon etishi bilan kishini o'ziga ohanrabodek tortadi. Bu esa mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga ham katta turtki beradi. Shu bois nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyatning moddiy madaniy merosi deb qaraladigan obidalarini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oqaversa, bu obyektlar YUNESKOning butunjahon merosi sifatida ro'yxatga olinib, muhofaza qilinadi.

– Respublika Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrda «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi qarori bilan Samarqand viloyatida 1607 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan, – dedi Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining navbatdagi sessiyasida moddiy madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish va muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar yuzasidan axborot bergan viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i Botir Shaymatov. – Ularning 973 tasi arxeologiya, 564 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari va 34 tasi diqqatga sazovor joylardir. Mavjud obyektlarning 1011 tasi respublika ahamiyatidagi, 596 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 221 tasi shaxsiy mulkdagi turar-joy binolari hisoblanadi.

Viloyatdagi madaniy meros obyektlarining 483 tasi, ya'ni 30 foizi Samarqand shahrida joylashgan. Madaniy merosni davlat tomonidan muhofaza qilish va davlat nazoratini o'rnatish maqsadida 815 ta obyektga muhofaza belgilari, 244 tasida yo'l ko'rsatkichlar o'rnatilgan. Shu paytgacha viloyatdagi madaniy meros obyektlarining 1537 tasida davlat kadastr hujjatlari shakllantirildi va ularning har biriga bir nafardan jamoatchi inspektor birlashtirildi. Bugungi kunda viloyatdagi turizm salohiyatiga ega moddiy madaniy meros obyektlariga 13 ta Wi-Fi va QR-kod, 50 ta audiogid o'rnatildi. Registon misolida Amir Temur maqbarasi, Bibixonim, Mirzo Ulug'bek, Shohi-Zinda, Xo'ja Doniyor majmuasi va "Afrosiyob" muzeyida sayyohlar kirishini elektron hisobga olish uchun zamonaviy turniketlar o'rnatilmoqda. Boshqarva boshlig'ining ta'kidlashicha, moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish, davlat reyestri, elektron katalogi, pasporti va davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegrallarini belgilash hamda sohada doimiy ravishda davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida joylarga chiqib o'rganishlar olib borilmoqda. Jumladan, 1607 obyekt qayta tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish uchun Madaniy meros agentligiga taqdim etildi, 789 ta obyektning pasporti shakllantirildi. Arxeologik madaniy meros obyektlarining 50 metrdan 100 metrgacha, arxitektura obyektlarining ikki metr balandlik barobarida muhofaza tegrallarini belgilash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, 130 ta yo'qolib ketish xavfi bo'lgan arxeologik madaniy meros obyektlarining ro'yxati shakllantirilib, Madaniy meros agentligiga taqdim etildi. Ta'mirlash va obodonlashtirishga muhtoj bo'lgan 55 moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining ro'yxati shakllantirilib, har bir obyekt yuzasidan nuqson dalolatnomalari rasmiylashtirildi. Bundan tashqari, 176 ta yangi arxeologik madaniy meros obyekti aniqlanib, ularni Milliy ro'yxatga kiritish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligiga taqdim etildi. Turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, obodonlashtirish, madaniy-ko'ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirish maqsadida o'tgan yil 15 ta madaniy meros obyekti restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirildi. Joriy yilda viloyatimizda 22 obyektga restavratsiya va qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirish belgilangan. Bugungi kunda YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand tarixiy markazi 1123 gektar va uning muhofaza zonasida 1369 gektarni tashkil etadi. Ushbu hududda o'z boshimchalik bilan olib borilayotgan qurilishlar aniqlanib ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilmogda.

G. HASANOV, O'ZA

”

«Har yili sal kam 1 millionga ko'paymoqdamiz. Keyingi yillarda O'zbekiston tug'ilish bo'yicha o'rta darajadan yuqorilgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Bugun har bir tug'uruq yoshidagi ayolga 3 nafardan farzand to'g'ri kelmoqda...»

FBDA
NIMA GAPLAR?



TU BANLIK

sari «dadil odimlayotganlar»

Bilamizki, har qanday ijtimoiy auditoriyaning o'z yo'nalishi va faol foydalanuvchilari bo'ladi. Facebook (FB) ham ana shunday yirik auditoriyaga ega faol platforma. Bu tarmoq jamiyatda yuz berayotgan eng qiziq voqea-hodisalardan tortib, qabul qilinayotgan qonunlar, shuningdek, ekofaollarning tanqidiy chiqishlarigacha muhokama qiladi... Yaqinda samarqandlik bir ayolning eriga achchiq qilib, qizaloqlarini kaltaklayotgani haqidagi video ham aynan FBda e'lon qilindi. Shuni alohida aytishim lozimki, videodagi so'zlar bir necha kun davomida qulog'im ostida jaranglab turdi: «Siz boqolmaysizmi, unda manam boqolmayman. Bitta-bitta o'ldiraman...».

ESKI DARD

Shunday paytlarda o'ylab qolaman: demak, bizdan avvalgi avlod – ota-onalarimiz juda baxtli va xotirjam yashagan ekanlar. Chunki ularni ijtimoiy tarmoqqa bo'lgan qaramlik kasali qiynamagan. Ular kundunora xotinini o'ldirgan er, erini o'ldirib, tilla tishlarini qoqib olgan xotin, zo'rlangan qizaloqlar, ayollar, kiprik qoqmay bolalarini kaltaklayotgan, hatto, joniga qasd

«jangi»da bemalal oq va qora shaxmat donalariga qiyoslash mumkin bo'ladi.

Ayrim mutaxassislar jinsiy tajovuzlarning kun sayin oshib borishining asosiy sababi ma'naviyatsizlik, ilmsizlik, kitob o'qishdek qadriyatimizni unutib qo'yganimiz deb ta'kidlayotgan bo'lsa, jurnalist Mirolim Isajonov va uning ayrim «dayk»doshlari maktabda jinsiy tarbiya darslari tashkil etilishi lozimligi, ularda

quyidagilarni yozadi: «Yoshlar balog'atga yetar ekan, jinsiy munosabatlar haqida noaniq, salbiy va chalkash xabarlar qurshovida qolmoqda. Ularni qiziqitirgan mavzuda internet sahifalari yoki tanish-bilishlardangina ma'lumot olish mumkin. Bu esa jinslar o'rtasidagi farqlarning me'yoriy fiziologik holat ekanini tushinishda qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi mamlakatlarda to'g'ri yo'lga qo'yilgan jinsiy

zo'ravonlik va uning oqibatidagi erta homiladorlik kabilar shular jumlasidandir. Jinsiy ta'lim jamiyatdagi boshqa muammolarni ham hal etishga yordam beradi. Negaki, unda stereotipik gender me'yorlarini o'zgartirish, reproduksiya, infeksiyalar, jinsiy yaqinlikka rozilik ikki tarafdin bo'lishi va ayollarga nisbatan zo'ravonlikka yo'l qo'yimaslik kerakligi haqida tushunarli ma'lumotlar beriladi.

Aytishlaricha, Gollandiya, Germaniya va Fransiya singari davlatlarda maktab dasturlaridan jinsiy tarbiya mavzusi alohida o'rin olgani bois, o'smirlarning homilador bo'lishi, jinsiy tajovuz holatlari kam yuz beradi. Shuningdek, Shvetsiya, Daniya, Belgiyada ham bu masalaga jiddiy yondashiladi.

Mutaxassislar jinsiy ta'lim yoshlarini erta jinsiy hayot boshlashga undaydi va to'g'ri yo'l dan adashtiradi, deya xavfsirashadi. Lekin YUNESKO o'tkazgan tadqiqotda jahonning 87 davlatidagi amaliyot ko'rib chiqilgan va jinsiy tarbiyaning xulq-atvoriga ta'siri haqida ijobiy xulosaga kelingan.

Bizda ham jinsiy tarbiya darslari tashkil etilsin, degan taklifni bildirgan hamkasbimiz bu borada jamoatchilik, ayniqsa, ota-onalar qanday munosabat bildirishi haqida o'ylamagan ko'rinadi. Bunga jamiyatning munosabati biz uchun ham qiziq: xo'sh, mentalitetimizga xos bo'lgan tarbiya usullarini yanada kengroq targ'ib etish afzalmikin yoki yevropaliklar «choptirayotgan otga mingashish»mi?

Xullas, Facebook har kuni «yonadi», «yondiradi». Ba'zan kulgili tanqidlar, gohida achchiq haqiqatlar, o'ta bachkana qiliqlar, xiyonatu vafu haqidagi ertaklar ham ayni shu auditoriyada. Kuting, nasib etsa, bundan keyin FBning yanada qaynoq muhokamalari bilan tanishtirib boramiz.

M. KARIMOVA,
«Milliy tiklanish» muxbiri



«QIZ – FARZAND EMASMI?»

O'g'il tug'magani uchun xotinini haydab solgan er haqidagi telenovellamizni ko'rgan bir turk tanishim FBda shunday yozibdi: farzand Yaratganning ne'matiku, axir. Nahotki, uni jinsiga qarab tanlash yoki sevish mumkin bo'lsa?!

Darrov javob yozolmadim. Chunki o'sha lahzalarda yoshligimizda eshitib katta bo'lgan bu iborani izohlashga biror gap topolmasdim. Oradan biroz vaqt o'tib yozdim: Bizda o'nta qizi bo'lsa ham o'ksitmay ulg'aytirgan, sevib ardoqlagan otalar juda ko'p...

Yana o'ylanib qoldim, afsuski, ketma-ket qiz tuqqani uchun xotinini kaltaklagan yoki haydagan, qiz farzandini e'tiborsizgina, o'g'lini esa tug'ruqxonadan dabdaba bilan olib chiqayotgan otalar ham ko'pda...

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanovaning navbatdagi «post»ida ham asosan jamiyatimizdagi eng og'riqli muammo o'rtaga tashlanadi: «Har yili sal kam 1 millionga ko'paymoqdamiz. Keyingi yillarda O'zbekiston tug'ilish bo'yicha o'rta darajadan yuqorilgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. Bugun har bir tug'uruq yoshidagi ayolga 3 nafardan farzand to'g'ri kelmoqda. Eng qizig'i, ko'payishimizning sabablaridan biri o'g'il farzand ko'rishga intilish ekanini tadqiqotlar ko'rsatib turibdi. Shu o'rinda savol tug'iladi: qiz farzand odam emasmi?! Qachon farzandni jinsiga qarab ajratishdan to'xtataymiz, bilmadim?!

Haqiqatan ham, global savol: farzandlarimizni jinsiga qarab ajratish qay bir e'tiqodga, tarbiya yoki urf-odatga to'g'ri keladi? Islomda qiz farzandni kamsitish qattiq qoralanganini yaxshi bilamiz, lekin o'g'lini ko'proq qadrlaymiz, qo'lab-quvatlaymiz. Ba'zan farzandlar o'rtasidagi adolatni, ota-onalik mas'uliyati, mehridagi tenglikni unutib qo'yamiz. Bu qachongacha davom etadi, yana qancha opa-singillarimiz ayni shu tengsizlikdan aziyat chekarkin-a?!

qilayotgan ota-onalar haqidagi lavhalarini ko'rib, yoki ular haqida o'qib, yuraklariga azob berishmagan. Bizga o'xshab dunyodagi jamiki yomonliklardan xabardor bo'lib, keyin qon bosimini tushirish uchun xapdori ichishmagan...

Qayd etilishicha, hozirda dunyo aholisi soni 8,054,493,552 nafarni tashkil etayotgan bo'lsa, internetdan foydalanuvchilar soni 5,830,461,380 nafar (albatta, bu statistika soat sayin o'zgarib boradi). 2022-yil statistikasiga ko'ra, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 31 mln.dan oshgan bo'lsa, shundan 4,7 millioni FBda faol. Tabiiyki, joriy yilning birinchi yarmida bu ko'rsatkich yanada oshgan.

Shu yilning birinchi yarim yilligida voyaga yetmagan bolalarga nisbatan sodir etilgan jinsiy zo'ravonlik jinoyati uchun 257 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan. Bu shuncha nafar norasidalarining eng beg'ubor tuyg'u va orzulariga vahshiy larcha chang solingan, deganidir. Bu zamondan ilgari ketgan ayrim g'arbparastlarning ensasini qotira boshlaganiga ko'rib, ma'naviyat va ma'rifatdan yuz o'girayotganimiz natijasidir. Shu zayl ensamiz qotaversa, kimlargadir qo'l siltab ketaversak, ma'naviyatni, axloqni, tarbiyani eskicha qarash deb qabul qilaversak, yuqoridagi statistikaning oshishiga hissa qo'shaveramiz...

BIZGA JINSIY TARBIYA DARSLARI KERAK(MI)?

Darvoqe, keyingi paytlarda FB foydalanuvchilari, ayniqsa, ziyolilar o'rtasida yana bir masala – jinsiy tarbiya masalasi keng muhokama qilinayotgani, ikkiga bo'lingan auditoriyani fikrlar

o'g'il bolalarga alohida, qizlarga alohida pedagoglar, mutaxassislar bilim bersin degan taklifni ilgari surishyapti. Jurnalist Dilshoda Matjonova esa: «...maktablarda jinoyat va jazo, huquqshunoslik darslari o'tilishi, jazoni o'tash koloniyalari, qamoqxonalarga ekskursiyalar uyushtirish kerak»ligini yozib, bu ayni paytda ko'p sodir etilayotgan fojialarning oldini olishga xizmat qilishini ta'kidlayapti. Yuzlab FB foydalanuvchilari esa pedofillarga o'lim jazosini berish kerak, degan qat'iy fikrdalar...

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlantirish bo'yicha mutaxassis Malika Sharipova

tarbiya, jamiyatdagi gender rollar, gender tengligi masalasiga to'g'ri munosabat tufayli muntazam ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilmogda.

Afsuski, yurtimizda hozirga qadar maktab o'quv dasturlariga jinsiy ta'lim kiritilmagan. O'smirlar orasida erta jinsiy aloqa va bu bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa-da, bu haqda ochiq aytilmaydi. Oila muhitida ham farzandlarga bu borada to'g'ri tushuncha berilmaydi. Ko'cha-ko'ydan olingan har bir noto'g'ri ma'lumot yoshlar orasida xatarli xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Pornografiya, jinsiy

Kuting!



Bu jasoratli ayol meni o'ziga tamomila rom etgan, yursam ham, tursam ham uning fojiali taqdiriga, olovda yonganiga achinib, tengdoshlarimga bildirmay, ozroq ko'zyoshi ham qilib olardim. Yillar o'tib, xizmat safari bilan Fransiyaga borganimda, Versal saroyining mahobatli zallaridan birida, men uchun ideal bo'lib qolgan Janna d Ark bilan yuzma-yuz keldim...

Kelgusi sonlarda

(Boshlanishi 1-betda)

Shu tariqa adib E.A'zamning barcha asarlariga xos zamon va makon mutanosibligi xususiyati uning ssenariyalarida ham aks eta boshladi. «Dilxiroj»da alpomat tog'lik yigitning sevgi iztiroblari an'anaviy urf-odatlar negizida yoritilgan bo'lsa, «Erkak» filmida yurtimizning chekka hududlarida kechayotgan ijtimoiy muammolarga oyna tutildi. Yusuf Roziqov bilan mazkur ijodiy hamkorlik o'zbek yozuvchisini mahoratli ssenariynavis sifatida ellarga tanitdi, deyish mumkin. «Erkak» filmi esa 2004-yilda «Kinoshok» xalqaro kinofestivalida «Eng yaxshi ssenariy» nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilgan bo'lsa, Vezul (Fransiya) xalqaro kinofestivalida Bosh sovrin (Gran-pri)ga sazovor bo'ldi. Bu film turg'unlik davridan chiqqaniga o'n yillargina bo'lgan o'zbek kinosining jahonga tanilishiga sababchi bo'lgan filmlar sirasiga kirdi.

Erkin A'zamning

BOYSUNGA TARALGAN KINO YOG'DUSI

«Erkak» filmi ayol qalbi va qadrini his etishga, ardoqlashga, chin erkak bo'lishga chaqiruv, deb tushunish ham mumkin. Haqiqiy erkak timsolida hali yigit yoshiga ham yetmagan Qo'zjon namuna sifatida ko'rsatilgan asarda biz endi Boysun tog'larida hayot kechiruvchi insonlarni boshqa bir nuqtadan ko'ramiz. Rejissyor filmni tandir yasash lavhasidan boshlaydi: tandir ichini suvayotgan ayol qo'llari loysuvoq bilan tandir devorlarini siypalar ekan, hali chehrasi ko'rsatilmagan yosh ayolning qo'llaridan mehr, sevgi va sog'inch tuyg'ulari taralayotgandek bo'ladi. Bu qo'llar egasi shahlo ko'zlarini yumib, tandir ichida xayol suradi. Jozibali chehra tabassumi egasigagina ayon bo'lgan sehrlilarni sotib qo'ygandek. U kimdir sog'ingan, ko'ngli o'sha sirlilarga orziqqan kabi...

«- O', yangi turing endi, ketish kerak!», - o'smir yigitcha (E.Abrayev) tandir tepasiga kelib, go'yoki uquqsiragan yangisini jerkibroq chaqiradi.

«- Hozir, Qo'zjon», - deydi yangi (aktrisa L.Eltoyeva) xayollaridan uzqolashishni istamay...

Yangasining har doim ko'zlarini yumib xayol surishini «uxlayverish»ga yo'yagan qaysar qaynuka obrazida biz o'tish yoshidagi o'smirning atrofidagilarga nisbatan alamzadalik kayfiyatini sezamiz. Bu kayfiyat sababi dramaturg tomonidan sekin-asta bayon etilarkan, Qo'zjovning yo'lida uchragan ko'mirchi ota-bolalar ham, bekorchi qartabozlar ham, «Salom Parij» amaki ham, haydovchi, qorovullar ham - hammalari birlashib, hikoya etilayotgan qishloqdagi biyiq muhitdan yetarlicha axborot beradi. Bu hududdagi ayollar harakatchan, tinib-tinchimas, yoriga sadoqatli, nigohlari yo'llarga tikilgan.

Erkaklari esa «baxt» va «omad» izlab xorijda yo daraksiz ketgan, yo qishloqqa yilda bir kelib-ketib, o'nga yaqin go'dak farzandlarining ismini ham unutgan «Salom Parij» kabilardir. Yoki tirikchilik g'amida tog'u toshdan ko'mir terib sotadigan yo ko'chada umrini bekor o'tkazib, xorijga ketgan hamqishloqlariga havasmand xayolparastlar.

Kinodramaturg turli xarakterlarni badiiy ifodalashda personajlar gap-so'zlariga monand harakat chizig'ini aniq belgilaydi. Epizodik personajdan to bosh qahramongacha dramaturg va rejissyor birgalikda ifodalashga harakat qilgan film bosh g'oyasi - Haqiqiy erkak obrazini yoritishga xizmat qiladi. Bu Erkak - Jamshid (Qo'zjon).

Filmida ijtimoiy muammolarni chuqurroq ifodalashga harakat qilgan dramaturg bir tomondan boriga ko'nib yashashdan o'zga chorasi yo'q qishloq

aholisini tushunishga chaqirgandek, ikkinchi tomondan Erkak va Ayolning azal taqdiriga bitilgan asl a'molidan uzqolashishining oqibatlari yaxshilik keltirmasligi to'g'risida chuqur mulohaza yuritgandek bo'ladi.

Asl san'at o'z iste'molchisi (tomoshabin, o'quvchi va h.k.) uni tushunishini murakkablashtirmaydi, shu bilan birga jo'n axborotlardan xoli bo'ladi. Bu ma'noda murakkab falsafa aralashmagan «Erkak» filmi ko'rish juda yengil. Ayni paytda, filmning asl

Umumiy qaralganda, Surxondaryoning betakror tabiati qo'ynida unib o'sgan inson shaharning bo'g'iq muhitida katta bo'lgan insondan keskin farq qiladi. Shaharlik bilan tog'lik dunyoqarashida ham tafovut katta. Shaharlik Ona tabiat qo'yniga qanchalik intilsa ham, o'z shahri, to'rt devoridan kechib ketolmaydi.

mohiyatini anglash uchun so'z va kadr uyg'unligi timsollarga yo'g'rilganini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

Parilar g'orida «bu dunyoga sig'magan parilar yasharmish», degan ma'lumot yangisini yo'qotib qo'rgan Jamshidning murg'ak ko'nglini titratib yuborar ekan, u azayimxonga bor dardini to'kib soladi: «Yangam dunyoda hammadan yaxshi edi, akam uning tirnog'igayam arzimaydi. Bo'ldi, u sira qaytib kelmasin, borgan yoqlarga birdan qolib ketsin!» Nihoyat simillab turgan dardi yorilgan Jamshidning gaplariga javoban «Hayriyat-ey, shu qishloq'dayam shermardan degani bor ekan - a'alo, Xudoga shukur-e...», degan gapini kinodramaturg qalbidan chiqqan bir ishonch, bir umid deya tushunamiz.

Erkin A'zamning barcha asarlari asosan, adib tug'ilib o'sgan maskan bilan bog'liq. Shahar urbanizatsiyasidan holi tog'lar va ular etagida joylashgan xonadonlarda yashovchi boysunliklarda odamzodga xos barcha fazilat ham, qusur ham bor. Ular kinodramaturgning «Zabarjad», «Jannat qaydadir», «Suv yoqalab», «Qarzdor», «Parizod» kabi ssenariylari va badiiy asarlari asosida yaratilgan filmlarda aks etadi.

Umumiy qaralganda, Surxondaryoning betakror tabiati qo'ynida unib o'sgan inson shaharning bo'g'iq muhitida katta bo'lgan insondan keskin farq qiladi. Shaharlik bilan tog'lik dunyoqarashida ham tafovut katta. Shaharlik Ona tabiat qo'yniga qanchalik intilsa ham, o'z shahri, to'rt devoridan kechib ketolmaydi. Chunki

uning majburiyatlari ko'p. Qishloq odami esa muammolar yechimi shaharda, deya fikr yuritadi. Erkin A'zamning kinoga ko'chgan aksar asarlarida mana shunday qiyoslashni kuzatish mumkin. Bu qiyoslash qay tomon afzalligini ko'rsatish uchun emas, aksincha, Ona tabiat qo'ynida yashaydiganlar tabiatga ko'proq yaqin bo'lishini eslatishga xizmat qiladi. Balki, adibning maqsadi qiyoslashdan holidir. Axir, u o'zi ko'rgan, shohidi bo'lgan, eshitgan va hayratlangan voqealardan badiiy voqe'lik yaratadi.

O'zining ichki ruhiy olami va aql tarozisi bilan ijod chig'irig'idan o'tib, pirovardida paydo bo'lgan yangi bir asarni o'quvchi yo tomoshabinga tuhfa etadi. Shuning uchun ham bir asarida qayd etilgan ayrim obraz yoki fikr boshqa asarlarida yanada sayqallanib, yangi personajlar hayotiga ko'chadi.

Mana bir misol: kinodramaturgning «Zabarjad» kinoqissasi o'zbek ijod kontentida har doim ham ijobiy jihatdan yoritilmaydigan personaj hayotini aks ettiradi. Bolaligida otasining o'limida aybsiz aybdor bo'lib qolgan qizchaniq turmush qurish yoshida o'sha bolalik kurtaklarini o'z holicha to'ldirishga harakat qilib kelayotgani asar mazmunini tashkil etadi. Onasi va nogiron ukasi bilan yashaydigan bo'y yetgan qizning real hayotda rosa «gap-so'zlariga» sababchi bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy hayoti kinodramaturg nigohi ila o'rganilar ekan, dramaturg odamiylikni birlamchi o'ringa ko'taradi. Shu bilan birga yuqorida qayd etganimizdek, shahar va qishloq paralelida qishloq odamlarining beg'uborligi, odamoxunligi, shirins'o'zligi, shaharning behalovat shovqin suroniga zid ko'rinadi. Bu kinoqissa 2007-yil rejissyor B.Odilov tomonidan suratga olindi. Bosh rolni ijro etgan mahoratli aktrisa Ilmira Rahimjonova bir oz to'pori va bolalarcha beg'ubor ayol obrazini yaratgan.

Rejissyor B.Odilov bilan hamkorlikda yaratilgan yana bir film «Qarzdor». Ssenariy muallifi E.A'zam bu asariga turmush tashvishlari yukini yelkada ko'tarib yurib, chin insoniyatini

unutmagan o'zbek yigitini qahramon qilib oladi. Asar qahramoni onasiz o'sayotgan o'g'lining kelajagidan qayg'urishi yetmagandek, akasining oilasi, jiyaning Toshkentga ketishi, opasining qizi, ammasining dorisi va hokazo tashvishlar yukini yelkasidan tushirib yuborolmaydi.

Akani Rossiyadan olib kelish uchun pul yig'ayotgan yarim o'qituvchi, yarim tadbirkor Bahromning e'tiqodi, maslagi ko'pchilik yurtdoshlarimizga xos. Shuning uchun ham uning holini osongina tushunamiz. Bu filmning bosh rol ijrochisi F. Shamsimatov hayot tashvishlaridan ezilgan, o'z turmushini yo'lga qo'ya olmayotgan, sevgan ayoliga ham dardini aytishga jur'at etolmayotgan alamzada insonning qiyofasini yoritir ekan, uning doim nimadandir norozi qiyofasi sun'iy emasligiga ishonasiz.

Rejissyor B. Odilovning an'anaviy hikoya uslubiga ko'ra «Qarzdor» filmi finalida asar g'oyasi ma'lum bo'ladi. Bahromga o'z tashvishlarini ortmoqlaganlar undan chin ko'ngildan minnatdor ekanliklarini namoyon etib, safarga ketishi uchun yiqqan mablag'larini undan ayamaydilar. «Qarzdor» filmi ssenariysida har bir so'z ham film g'oyasini yoritishga xizmat qiladi.

Aytish joizki, yozuvchi E. A'zamning kinoga ilk qadam tashlagan davri bilan keyingi davr oraliqida ijodkor kinodramaturg sifatida mahorat cho'qqisiga ko'tarila bordi. Uning «Suv yoqalab» kinossenariysi ana shunday mukammal ssenariylar sifatida e'tirof etildi. O'z navbatida bu filmni suratga olgan J.Qosimovning rejissyorlik mahorati ham kutilgandek yaxshi natija berdi.

Dramaturg qurilishi oddiylikdan murakkablik tomon rivojlanib borgan film syujetlari uchun aniq sahnalar o'ylab topilgan, ular epizoddan epizodga o'tish uchun suv yo'li - ariqning (goh qurigan, goh sokin, goh shiddat bilan oqayotgan) tasvirlari aniq kinoga xos tilda yaratilganini ko'rsatadi.

Katta bog'ning suvsab kolgan daraxtlarini sug'orishga bel bog'lagan sobiq raisning hayot yo'li sokin o'tmaganligi, odamlarga yaxshilik qilish bilan birga, ba'zilar uni dushman sanashi, chin insonlik maslagiga sodiq yashab kelgan bo'lsa-da, o'g'illarining ba'zan unga o'xshamasliklari va yana hayotining turli «fasllari» uning bir kunlik harakat chizig'ida batafsil yoritilgan.

Qayd etish kerakki, Erkin A'zam bilan hamkorlikda ijod etgan Yu.Roziqov, J.Qosimov, B.Odilov, A.Shahobiddinov singari rejissyorlar uchun E.A'zam ssenariylari asosida film olish qiziqarli

va mas'uliyatli ish. Lekin, yozuvchining nigohi bilan ko'rilgan voqe'likni ramziy ma'nolari bilan tasmlalarda ifodalash o'ta murakkab jarayondir. Bu o'rinda A.Shahobiddinov suratga olgan «Parizod» filmida ko'proq mistika ustunlik qilishi kutilgandi. Zotan, kinoqissada shunday sirlilik kuzatiladi. A.Shahobiddinov kinoqissa mazmuniga keskin ta'sir etishni istamaydi. Bosh qahramonlar Jonibek va Pari obrazlari ham qissa matnidan ko'p ham uzqolashmay talqin etiladi. Nazarimizda, muallif E.A'zam rozilik bergudek bo'lganida, bu asarni mistik fojiiy drama darajasiga olib chiqish hamda Iblisning Farishtaga solgan chagalini filmning asosiy tomir o'qi sifatida ifodalash mumkin edi. Albatta, bu subyektiv mulohaza bo'lishi mumkin...

«Parizod» filmi 2012-yili Rossiyaning xalqaro «Kinoshok» festivalida Gran-prini qo'lga kiritdi. Sergey Bondarchuk nomidagi «Volokolamskiy rubej» Xalqaro kinofestivalining «Eng yaxshi ayol roli uchun» sovrini va «Severnoye siyaniye» festivalida diplom bilan taqdirlandi.

Yozuvchi E. A'zam inson xarakterini chuqur yoritish uchun o'z qahramonini turli voqealar, odamlar va fitnalarga duchor qiladi. Natijada turli vaziyatlarga tushgan qahramonlarning murakkab xarakter tomoshabin ko'z o'ngida sayqallanib boradi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, yozuvchi uydirma syujetlarga berilmaydi, qahramonlarining hayotdagi prototiplarini uzoq muddat kuzatib, ularni badiiy tafakkuri bilan boyitadi.

Shu kungacha E.A'zam qalamiga mansub o'nlab asarlar kinoga ko'chgan ekan, ularning hammasida ham ssenariy muallifi E.A'zam emas. Ehtimol, shuning uchun ham o'n ta asardan 3-4 tasigina yozuvchi tomonidan e'tirof etilgan. Lekin, ayrim filmlardan umuman ko'ngli to'lmagan yozuvchi noroziligini keng auditoriyaga oshkor etishni xushlamaydi. «Bo'lar ish bo'пти» qabilida qo'l siltab qo'yaveradi...

O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning ijodlariga baraka tilagan holda o'zbek kino san'atining kelgusi rivojida bu Insonning o'z o'rni bo'lishi kerakligini ta'kidlaymiz. Zotan, o'zbekning fe'lini, dardini yaxshi bilgan mahoratli kinodramaturg yetishmasligi o'zbek kinosining doimiy muammosi.

Shohida ESHONBOBOYEVA,
«Milliy tiklanish» muxbiri

E'tirof

KURASH - MILLIY QADRIYATLARIMIZNING BIR BO'LAGI

Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, bolalar va yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, maktab o'quvchilarining xalqaro musobaqalarda ishtirok etishlariga ko'maklashish va, albatta, milliy sport turlarini qayta tiklash «Milliy tiklanish»ning 2020-2024-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturidan o'rin egallagan bosh maqsadlaridir.

Muzrabot tumanidagi BO'SMda 2005, 2006-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida o'tgan musobaqa ham ana shu yo'nalishdagi ishlardandir. Tuman hokimligi bilan tashkil etilgan musobaqa ko'zida o'zlariga bo'lgan ishonch, raqibini yengishga bo'lgan ishtiyoq aslida eng katta natija bo'ldi. - 15 yoshdaman. 5 yildan buyon milliy kurash bilan shug'ullanaman. Ushbu musobaqada «Kurash usullarini eng yaxshi bajargan yosh sportchi» nominatsiyasida g'olib bo'ldim va buning uchun ota-onam

hamda ustozlarimdan minnatdorman, - deydi G'olibbek Choriyev. Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlarga Muzrabot tumani hokimligi va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Surxondaryo viloyati Kengashining diplom, medal hamda esdalik sovg'alari topshirildi. - «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tashabbusi bilan o'tkazilgan musobaqa ham biz kurashchilar uchun yana bir imtihon bo'ldi, - deydi tumanning «Anorzor» mahallasida yashovchi, o'n yetti yoshli Elbek To'raqulov. - Bellashuvda +77

kilogramm vazn toifasida g'oliblikka erishdim. Kelgusida yetuk kurashchi bo'lib, vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqchiman. Ko'rinib turibdiki, yoshlar sportning qaysi turi bilan shug'ullanmasin, ularda mardlik, vatanparvarlik, shijoat va mas'uliyatli bo'lish xislatlari shakllanaveradi. Zotan, sport faqat jismonan emas, ruhiy va ma'naviy tarbiyaning ham tag zaminidir.

Ulug'bek XO'JAQULOV,
«Milliy tiklanish»
demokratik partiyasi
Surxondaryo viloyati
Kengashi raisi o'rinbosari



Chorshanba
16-avgust, 2023-yil
№26 (1214)

TOSHKENTDA KIMLARDIR O'Z MANSABI VA LAVOZIMIDAN XAYRLASHMOQCHI SHEKILLI...

yoki deputat Otabek Jiyanbayevning bezovtaligi bejiz emas...

Yangilanish va o'zgarishlarga qaramay muammo va kamchiliklar oldindan befarq o'tib ketish, qo'l siltash kasalligidan xalos bo'lishimiz oson kechmayapti. Qachonki «yuqori»dan «bosim» uyushtirilsa, tekshiruv kelsa, yoki OAV masala ko'tarsa, ko'zimizni kattaroq ocha boshlaymiz.



Yaqinda partiya Toshkent shahar Kengashi raisi Otabek Jiyanbayev boshchiligidagi deputatlar guruhi poytaxtimizdagi madaniy meros obyektlarida bo'lib, ayrim obidalarda boshlangan ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari talab darajasida olib borilmayotgani, ko'plari qarovsiz qoldirilgan, hatto, chiqindilar bilan to'layotgani haqida bong urgan edilar. Jumladan, Shayxontohur tumanidagi XVIII asrga tegishi Azlarxon eshon masjidi boshlangan rekonstruksiya ishlari chala tashlab ketilgan, obodonlashtirish ishlari obidaning asosiy qismidan emas, tashqarisidan boshlangan. Aslida bu ishlar eng so'nggi bosqichda amalga oshirilishi kerak edi. Shu bois ham endi asosiy binoda to'planib qolgan chiqindilarni olib chiqishda muammolar paydo bo'lyapti. Ma'lumki, bu ishlar birinchi bosqichi uchun 450 million so'mga yaqin mablag' ajratilgan. Shuningdek, Yunusobod Oqtepa yodgorligiga bugun kirish u yoqda tursin, qarab bo'lmaydigan holatga kelib qolgan edi. O'z paytida qariyb 100 gektar yerga ega bo'lgan Oqtepa hududi hisobidan yillar davomida shaxsiy uy egalari yerga ajratib berilavergani natijasida bugun tepalikning atigi 5 gektar saqlab qolingan, xolos. Qolgan hudud ham asta-sekin

«el-yurtga ulashilib», vayron bo'lmoqda. Homiyar yordami bilan o'rnatilgan temir to'siqlar esa ayrim shaxslar tomonidan ochiq-oydin buzib tashlanyapti yoki o'g'irlanyapti. Ma'lumki, Yunusobod Oqtepa qadimgi binolar qoldiqlari va arxeologik madaniy qatlamlar saqlangan tepalıklardan iborat bo'lib, bir paytlar o'zining so'lim go'shalari, bog'lari bilan mashhur bo'lgan. Hatto, o'z paytida xorijliklar ham ziyorat qiladigan eng asosiy maskan bugunga kelib qarovsiz holatga tashlab qo'yilgan. Xabarlariga ko'ra, deputatlarimiz e'tirozidan keyin ko'p o'tmay shahar Madaniy meros obyektlari boshqarmasi hamda tegishli idoralar oyoqqa turgan. Aniqlangan kamchiliklarni hal qilish bo'yicha qisqa vaqt ichida obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish ishlari amalga oshirilgan. Xususan, Toshkent shahar madaniy meros obyektlari boshqarmasi tomonidan Respublika madaniy meros agentligiga murojaat qilinib, mas'ullar jalb etilgan holda Azlarxon eshon masjidi ichi va tashqi taraflari chiqindilardan butkul tozalangan. Boshqacha aytganda, Vazirlar Mahkamasining 110-sonli qaroriga asosan boshlangan, ammo to'xtab qolgan ishlar deputatlar harakati bilan yana jonlandi. Birinchi

bosqichda sifatsiz bajarilgan ishlar mutaxassislar nazorati ostida qaytadan amalga oshirila boshlandi. Ayni paytda obyektni ta'mirlashning ikkinchi bosqichini boshlash uchun tegishli idoralar bilan moliyaviy masalalarni hal qilish bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Yana bir gap: tarixiy obyektlar atrofida istiqomat qilayotgan aholi bilan mahalla raislari, faollar ishtirokida obidalarni ko'zqorachig'idek asrash, hudud obodligini ta'minlash bo'yicha yig'ilishlar o'tkazilib, mas'ullar biriktirilgan. Partiyaning Toshkent shahar Kengashi raisi Otabek Jiyanbayevning ma'lum qilishicha, bir yil oldin xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining poytaxtdagi 10 ta madaniy meros obyektni rekonstruksiya va konservatsiya qilish uchun 19 mlrd. so'm, shuningdek, poytaxtimizning 2200 yoshini belgilovchi Yangihayot tumanidagi «Shoshtepa» arxeologik yodgorligi uchun 16 mlrd. so'm ajratish bo'yicha qarori tasdiqlangan, ammo hanuzgacha pul ajratilmagan. Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining ma'lum qilishicha, o'tgan yili Toshkent shahridagi 6 ta madaniy meros obyektlarini restavratsiya va konservatsiya qilish uchun 23,6 mlrd. so'm

mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, hozirda 3 ta obyektida qurilish ta'mirlash ishlari boshlangan, xolos. Ayni paytda deputatlik guruhlar tomonidan poytaxtdagi barcha tarixiy obyektlarni o'rganish ishlari davom etmoqda. Tez orada barcha kamchiliklar umumlashtirilib, masala yana xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi sessiyasiga kiritiladi. Hechdan ko'ra kech deganlaridek, kamchiliklarning bartaraf etilayotgani yaxshi, albatta. Ammo nima uchun ayrim mas'ullar hamon e'tiborsiz va nihoyatda dolzarb masalaga befarq. Qachon tashabbus ko'rsatib ishlashni o'rganamiz, yoki o'z vazifasini munosib bajarishi uchun «tepadan» kimdir turtib turishi kerakmi? Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagida nutqida endi barcha soha va tarmoqlarda tizim o'zgarishi, vaziyat o'zgarishi, samaradorlik o'zgarishini ta'kidlab, befarq rahbarlarga qarata shunday degan edilar: «Barcha bo'g'indagi rahbarlarga chiroyli, balandparvoz gapiga qarab emas, faoliyatining aniq natijasiga qarab baho beramiz. Qonunlarni, odamlarni mensimaydigan, ularga qo'pol munosabatda

Shayxontohur tumanidagi XVIII asrga tegishi Azlarxon eshon masjidi boshlangan rekonstruksiya ishlari chala tashlab ketilgan, obodonlashtirish ishlari obidaning asosiy qismidan emas, tashqarisidan boshlangan.



bo'ladigan, byurokratiya va korrupsiya balosiga berilgan har qanday rahbar bilan — u vazir yoki hokim bo'ladimi, boshqa mas'ul vazifadagi amaldor bo'ladimi — salbiy harakatlari bilan

davlat obro'siga putur yetkazayotgan bunday kishilar bilan uzil-kесil xayrlashamiz».

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

HUDUDLARDA

«GULBOG'»

Bektemirda namunaga aylanyapti

14-avgust kuni Bektemir tumanining «Gulbog'» mahallasida «Obod xonadon», «Obod ko'cha» va «Obod mahalla» mezonlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan bir qator ishlar yuzasidan OAV va bloggerlar ishtirokida press-tur tashkil etildi. Tadbir doirasida OAV vakillariga «Gulbog'» mahallasi infratuzilmasini yaxshilash va aholi muammolarini hal etish, ularga qulayliklar yaratish maqsadida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Shu kuni «Gulbog'» poliklinikasi binosida tibbiy ko'rik tashkil etildi. Mehnat yarmarkasi, mahalla aholisi uchun arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari savdo yarmarkalari o'tkazildi. Press-turda ishtirok etgan blogger va jurnalistlarga mahalla ko'chalarida olib borilayotgan ishlar haqida axborot berildi. Tadbir ishtirokchilari mahalla va hokimiyatning ko'magi asosida Subsiyida olib, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan fuqarolar bilan tanishish hamda og'ir sharoitda yashayotgan oilalarga ko'rsatilgan yordam ko'laminu yaqindan ko'rish maqsadida ayrim xonadonlarga tashrif buyurdilar ham. Shuni ta'kidlash joizki, muammolarni o'rganish yuzasidan tuzilgan ishchi guruh vakillari tomonidan 554 ta xonadonlar uyma-uy o'rganildi, natijada fuqarolarning sog'liqni

saqlash, moddiy yordam, bandlik, subsidiya, kredit, uyma-uy ta'mirlash va boshqa masalalar bo'yicha muammolari aniqlandi. Eng asosiysi, uyma-uy o'rganishlar natijasida 13 nafar fuqaroga (1 nafari respublika, 12 nafari shahar va tuman miqyosidagi) shifoxonalarda davolanish uchun bepul yo'llanma berildi, 144 nafariga zarur dori-darmon, nogironlik aravachasi va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga oziq-ovqat va turli mahsulotlar taqdim etildi. «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va yagona ijtimoiy reyestr ro'yxatiga kiritilgan fuqarolarga ham amaliy yordamlar ko'rsatila boshlandi. Qayd etish joizki, «Gulbog'»da jami 554 ta yakka tartibdagi xonadonlarda 2 038 nafar aholi (850 ta oila) istiqomat qiladi. Mahalla turli millat vakillaridan iborat bo'lib, shundan, 1 354 nafari (66%) qozoq, 597 nafari (29%) o'zbek, 76 nafari (0,03%) koreys, 11 nafari (0,001%) tatar millatiga mansub fuqarolardir. Mahallada aholi bandligini ta'minlash va oilalarni tadbirkorlikka jalb qilish maqsadida 22 nafar fuqaro ishga joylashtirildi, 15 nafari o'zini-ozini band qilinishiga erishildi. Shuningdek, 9 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitildi, 3 nafari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun subsidiya asosida maishiy texnika olib berildi. 50 nafar fuqaro haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi.

Yana bir raqam: 5 ta oilaning farzandlari DMTTlarga joylashtirildi. Og'ir turmush sharoitida yashovchi 48 nafar fuqaro xonadonida ta'mirlash ishlari boshlanib, hozirda 24 ta xonadonda qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. 161 ta ehtiyojmand oilalarning xonadonlari obodonlashtirildi, 14 ta xonadonda zararli hashoratlar qarshi dezinfeksiya ishlari o'tkazildi. Bir so'z bilan aytganda, «Gulbog'» o'zgarayapti. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida esa 12,8 km ichimlik suvi quvurlari tortildi, natijada 554 ta xonadon ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi. Mahalladagi ichki yo'llar holatini yaxshilash maqsadida 900 m2 yo'llar asfalt qilindi. Eng muhimi, mahallaning Obod, Turkiston, Nafosat, Ziyonur ko'chalarida sayilgoh, sport maydonchasi, vorkaut, bolalar maydonchalari barpo etish loyihalari ishlab chiqildi.



Mahliyo ISAKOVA,
Bektemir tumani hokimining matbuot kotibi, axborot siyosati masalalar bo'yicha maslahatchisi

XALQARO HAYOT



QUVVATLOVCHI QURILMADAN SAQLANING!

Rossiyaning Kemerovo viloyatida bir yarim yoshli bola ota-onasining yotoqxonasidagi telefon quvvatlovchi simiga tilini tekizishi oqibatida vafot etdi. To'shak yonidagi qurilmada Xitoyning Xiaomi POCO X3 telefoni bor edi. Telefon standart emas, balki magnit edi (otasi uni WBda buyurtma qilgan). Bola simga tilini tekizishi bilanoq uni elektr toki urgan va halok bo'lgan.

ISH O'RINLARIGA TAHID

Dunyo bo'ylab 300 milliondan ortiq ish o'rni sun'iy intellekt bilan almashirilishi mumkin. Bu esa global iqtisodiyotga 17-26 trillion dollar foyda keltiradi.

HINDISTON DOLLARDAN VOZ KECHDI

Hindiston BAAning xom nefti uchun birinchi marta rupiyda to'lovni amalga oshirib, o'zaro savdoda rasmiy ravishda AQSH dollaridan voz kechdi.

8 MING BOLA HALOK BO'LDI

Yaman Milliy Najot Hukumatining Inson huquqlari bo'yicha vaziri Saudiya-Amirlik koalitsiyasining Yamanga qarshi urushi boshlanganidan beri 8000 yamanlik bola halok bo'lganini aytdi.

ROSSIYA MUSOFIRLARIGA «QUYOSH CHIQDI»

Rossiya Markaziy banki mamlakatdagi asosiy stavkani 8,5 foizdan 12 foizgacha oshirdi. Qaror rubl qadrsizlanishi fonida muddatidan oldin o'tkazilgan yig'ilishda qabul qilindi. Ayni paytda 1 dollar 95 rubl atrofida baholanmoqda. Asosiy stavka oshirilishi rubl qadrlig bo'lishiga yordam beradi. Bu esa o'zbekistonlik musofirlar o'z oilasiga pul jo'nata olish imkoniyatini oshiradi.



TOLIBON VAERON
MOJAROSI

Bloomberg axborot agentligining xabar berishicha, «Tolibon» suv mojarosi sababli Eron chegarasiga yuzlab xudkush-terrorchilarni joylashtirdi. AQSHdan qolgan yuzlab harbiy texnikalar ham chegaraga ko'chirilgani aytilmoqda. Avvalroq, Eron prezidenti «Tolibon»ni suv kelishuviga rioya qilishga chaqirib, aks holda oqibati yomon bo'lishidan ogohlantirgandi.

UKRAINAGA YORDAM PAKETI

Shvetsiya Mudofaa vazirining ta'kidlashicha, mamlakat Ukrainaga 314 million dollardan ortiq yangi harbiy yordam paketini tayyorlamogda. Xabarda aytilishicha, paketga o'q-dorilar, Stridsfordon 90 va Archer tizimlari uchun ehtiyot qismlar, shuningdek, yuk mashinalari va minalarni tozalash uskunalari kiradi.



Tinchlikmi? Nahot biz shu qadar tez unutuluvchan xalqmiz? Nima, sobiq marhum «Paxtakor»chilarning o'lmas xotirasi faqat ularning ortida hamon yig'lab o'tayotgan oila a'zolari uchungina aziz bo'lib qolgandimi? Biz-chi, o'sha zamonlarda «Paxtakor» dunyoning qaysi bir davlatida maydonga tushsa uchib yetib boradigan muxlislar...

OSMONLARDA UCHGAN YULDUZLAR...

Keyingi paytlarda futbol, ayniqsa, futboldagi oqsoqliklar hajviyalar uchun ham asosiy mavzulardan biriga aylanayotgani achchiq haqiqat. «Tanqid kelajak mevasi» degan fikr qaysidir soha rivojiga yordam berayotgan bo'lsa bordir, ammo o'zbek futboliga emas. To'g'ri, Eldor Shomurodov, Abduqodir Husanov kabi futbolchilarimiz bugun Yevropa klublarida to'p surishyapti. Ammo bu jamoaviy muvaffaqiyatlarga yo'l ochib bermayapti. Shu bois ham, muxlislar 70-yillarda dunyo yashil maydonlarini titratib to'p tepgan «Paxtakor»ni haligacha o'zgacha sog'inch bilan eslashadi. Va, aynan bugun o'zbek futboliga o'sha jamoadagi jo'shqinlik, shijoat – «olov» yetishmayotganini ta'kidlashadi.



«Paxtakor – 79» jamoasini jurnalist Norqobil Jalil shunday xotirlaydi:

1979-yil 11-avgust... «Men o'shanda Kitob tumanidagi Maqsd Shayxzoda nomidagi 21-o'rtta maktabni tamomlab, ToshDUning jurnalistika fakultetiga imtihonlar topshirayotgandim...

Hali-hali oramizda «Paxtakor-79» komandasi a'zolari eslansa, ko'zlari yoshga to'ladiganlar kam emas. Chunki bu komanda chin ma'noda O'zbekistonimiz, hatto Markaziy Osiyo xalqlarining faxri, iftixoriga aylalib ulgurgan edi.

1979-yilning 11-avgusti. Toshkent vaqti bilan soat 13dan 35 daqiqa 38 soniya o'tgan. Shu lahzada Toshkent-Gurev-Donetsk-Minsk reysida parvoz qilayotgan «TU-134» samolyoti Chelyabinsk-Kishinyov reysini bajarayotgan shu rusumdagi boshqa samolyot bilan to'qnashib ketadi. Fojia yerdan 8400 metr balandlikda yuz beradi va ikki samolyot bortida bo'lgan 178 kishi halok bo'ldi. Ular orasida o'zbek futbolining faxri hisoblangan «Paxtakor»ning 17 nafardan iborat jamoasi ham bor edi. Afsuski, dispetcherning xatosi tufayli...

Yana o'sha taniqli san'atkor Ergash Karimovning «Paxtakor», «Paxtakor» deya qichqirganlarini eslaymiz. Yutsa, kulib bayram qiladigan, yutqazsa yig'lab, aza tutishga arziydigan komanda edi-da «Paxtakor-79»!

Keyin qancha xotiralar yozildi, kitoblar, kinolar ishlandi. Mashhur shahrlivchi, rahmatli Axbor aka Imomxo'jayev umrining so'nggi nafasigacha «Paxtakor»chilar xotirasi deb qancha armon qildi, ko'zlar to'la yosh bilan qancha kitoblar, maqolalar yozdi, yig'lab-yig'lab intervyular berdi.

Bu yil o'sha fojia ro'y berganiga 44 yil to'ldi! Ertalabdan beri radioefirlarni, telekran yo hozir rusumga aylangan ijtimoiy tarmoqlarni kuzatdim. Tayinli biror narsa ko'rmadim. Tinchlikmi? Nahot biz shu qadar tez unutuluvchan xalqmiz? Nima, sobiq marhum «paxtakor»chilarning o'lmas xotirasi faqat ularning ortida hamon yig'lab o'tayotgan oila a'zolari uchungina aziz bo'lib qolgandimi? Biz-chi, o'sha zamonlarda «Paxtakor» dunyoning qaysi bir davlatida maydonga tushsa uchib yetib boradigan muxlislar... hali o'lganimiz yo'q-ku! Bilaman, bugun sport-futbolga mas'ullar rasmiyatchilik uchun bo'lsa-da, ular xotirasiga o'rnatilgan ramziy yodgorlik poyiga gullar qo'yishar yoki jigarg'o'shalarini eslashar. Bo'lmasa...

O'zbek futbolining flagmani, faxriy jurnalist Axbor Imomxo'jayev intervyularining birida «Paxtakor – 79» halokatidan keyingi birinchi o'yinni ko'zda yosh bilan shunday xotirlagan edi:

«Toshkentdagi birinchi o'yin 1979-yil 27-avgustda bo'lib o'tdi. O'sha ochiq va jazirama avgust oqshomi «Paxtakor»ning 50 ming nafar chin muxlisi yig'ilgan edi. O'yingoh uzra bunday joy uchun xos bo'lmagan sukunat hukm surardi – hammaning ko'zi o'rtadagi yashil maydonda, hech kim bir-biri bilan gaplashmaydi... Maykalariga motam tasmasi taqilgan «Paxtakor» va Tbilisining «Dinamo» jamoalari futbolchilari chiqib keladilar. O'yinchilar boshlari egik holda asta yurib borishardi... Libos shakli o'sha-o'sha, «Paxtakor» ramzi ham o'sha-o'sha va o'sha raqamlar. Faqat futbolchilar boshqa edi... O'zlari yaxshi ko'rgan o'yinchilarni so'nggi daqiqagacha ko'zlari to'rt bo'lib kutgan, haligacha ularning o'lganiga ishonmagan ming-minglab muxlislar bir-birini quchoqlab, ho'ngrab yig'lab edi. O'yin anchagacha boshlanmay turdi, futbolchilar maydon chekkasidan tabarruk chimzorga qadam qo'ygani jur'at etolmayotgandi – axir, kuni-kecha bu yerda halok bo'lgan paxtakorchilar qanchalik berilib to'p surar edilar...»

Tan olaylik, hozir ham «Paxtakor» muxlislari oz emas. Ular «Paxtakor»ni sevib, unga astoydil muxlislik qilishadi. Ammo natija ular kutgandek bo'lmayapti...

Qani endi o'zbek futboli yana 70- yillardagi muvaffaqiyatlarga ko'milsayu, «Paxtakor»chilar ruhi shodlansa...

MOZIYDAN SADO

BIZ KIM VA NIMALARDAN QO'RQAMIZ?



Har kimning o'ziga yarasha qo'rqatg'ran narsasi bo'ladi. «Ishtonsizning cho'pdan hadugi bor», degandek, shu vaqtda ishtonlik inson — haduksiz odam ehtimol yo'qdir. Turkiston istatsitiqa idorasining keyingi yiqq'an hisobiga qarag'anda, ishtonsizlar bana'ji ko'payibdirarki, biz ularni aynan quyida ko'chiramiz:

Mustamlakachi — achchig'lang'an chog'ida sirining ochilishidan qo'rqadir. Har turluk idora mudirlari — saylov yaqinlashsa mansabdand tushib qolishdan qo'rqadirlar. Yangi ko'z ochgan hisobsiz o'zbek sho'ircha va shoirachalari — ming mashaqqat bilan azoblanib yozg'an she'rlarining gazetalarda bosilmay qolishidan qo'rqadirlar. Tutantiruqsiz maqola yozishg'a o'rgangan muharrirlar — to'sundan tegib qolaturg'an tanqid kaltigidan qo'rqadirlar. Boy va sovdagarlar — ayniqsa bularning qo'rqunchlari poyonsizdir... Chunonchi: do'kon sovdasi yaqinlashsa, ijarani oshirib yuboraturg'an yakanchilardan qo'rqadirlar, qo'llarig'a ko'proq pul yig'ilib qolsa, mollar oshib, pul qursining tushib ketishidan


qo'rqadirlar, qo'lida anchayin qog'oz ko'targan kishini ko'rsalar «torg'ovoy nalo'g» tushmog'idand qo'rqadirlar, ro'za oyi kirib zakot berish eska tushsa, mollar hisobini olishdan qo'rqadirlar... Har holda bu durkum xalq uchun yer ham qo'rqunch, ko'k ham qo'rqunch. Faqat qoro yerning ostig'ina tinchdir! Kambag'al dehqon va ishchila — kun sayin bozor bahosining birga bir ko'tarilishidan qo'rqadirlar. Hukumat idoralaridagi poraxo'rlar — poraxo'rliq bilan kurash boshlang'andan beri o'zlarining soyalaridan ham qo'rqadirlar. Ko'kdagi bulutlar — yog'ay desa Xudoning buyrug'idand, yog'ay desa yerdagi maxluqlarning chirtirg'irpirtigidand qo'rqadirlar...

Julqunboy (Abdulla Qodiriy). «Mushum» jurnali, 1923-yil 7-son

Qadim Farg'ona OTLARINING QANOTLARI BO'LGANMI?

Qadimgi Farg'onaning dul-dul samoviy arg'umolari haqida eshitganmisiz? «Ot minganga insu jinslar yaqinlasha olmaydi, chunki ot da dev bo'lib, insu jinslar otning devidand qo'rqadi», degan naqlinchi? Afsonalarga ko'ra, qadim Farg'ona otlariga jinlar ham yaqinlasha olmas ekan...

qoldirilishi mumkin bo'lgan davrdand ancha qadimga borib taqaladi. Shuning uchun O'rta Osiyodand mazkur masaladand arxeologiya fanining so'nggi yutuqlariga tayanish muhim. Arxeologik tadqiqotlar natijasidand Farg'ona vodiysining Aravon qoyasidand, Marhamat yaqinidand, Novqat vodiysidand, Obishir (So'x tumani)dand Ayirmachtov tog' tizmasidand devoriy suratlar, Marv yaqinidandagi «Tekeli-tepa», «Oltin tepa»dand otning sopoldand yasalgan haykalcchalari topilgani yurtimizdand yilqichilik rivoji qadim davrdand xo'jalikning muhim turiga aylalib borganini ko'rsatadi. Qoyatoshlardand suratlardand otlar, asosand, chayirli, baland yag'rini, oyoqlari va qulog'i, bo'ynining uzun, kallasining gavdasiga nisbatand kichikligi kabi zotdor otlarga xos bo'lgan



Qadimgi Farg'ona davlati Xitoy manbalaridand Davan yoki Dovon, deb tilga olinadi. Dovonning qadimgi «samoviy otlari» to'g'risidand doston, afsona va ertaklaridand otning ilohiy darajaga ko'tarilgani haqidand madhiyalar avlodand-avlodgand o'tib kelgand.

belgilari bilan tasvirlangand.

Dovonning «samoviy otlari» to'g'risidand eng aniq ma'lumotlar qadimiy va ilk o'rta asrlargand oid Xitoy manbalaridand uchraydi. Miloddand avvalgi 206 – milodiy 8 yillarni o'z ichigand olgand «Xanshu» (Xan sulolasi tarixi) va «Buyuk Farg'ona» (Day-yuan) tazkiralaridand ketirilgand ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona 70dand ortiq shahar va qishloqlardand iborat bo'lgand. Farg'onaning zotli otlari ko'p bo'lib, ular yugurgandand ter o'rnigand qon oqadi, degand rivoyatlar mavjud. Qayd etilishicha, bu otlar Tangri otlaridand tarqalgand emish va ular beda bilan boqilarmish, degand xabar Xan hukmdorigand yetib boradi. «Aytishlaricha, Farg'ona mamlakatidand baland tog' bor ekan. Ushbu tog'ning ustidand ot bor va bu ot ni tutib

bo'lmas ekan. Rangdor bir ot (baytal)ni tog' etagigand bog'lab qo'yib, undand nasl olingand ekan. Tug'ilgandand badanidand qonsimon ter chiqib turgand ekan».

Chjang Chyan Xan imperatori U-digand shu tarzda birinchi marta tulpor otlar to'g'risidand so'zlab bergandandayog, o'zini Osmon o'g'li, deb hisoblagand imperatorning samoviy otlarga ishtiyoqi kuchayadi. Uning birgina orzusi ana shu arg'umolarga yetishish bo'lib qoladi. Imperator elchilar orqali 1000 jing (hozirgi hisobdand 500 kg) oltin va oltindand yasalgand ot haykali yuborib, Farg'ona hukmdori (vangdand bular evazigand zotli otlardand berishni so'ragand. Biroq, Farg'ona hukmdori Muga ko'p sonli Xan

qo'shinlari uzoqand yetib kelolmaydi, deb o'ylab, bunga rozi bo'lmagand va bebaho otlarini bermagand. Bundand jahli chiqqand U-dining elchisi Che Lin Farg'ona hukmdorini haqorat qilgand va oqibatdand Farg'ona hukmdori Muga uni qatlgand hukm qilgand. Buni eshitib, jahli chiqqand Xitoy imperatori U-di miloddand avvalgi 104-yili Li Guangli ismi sarkardani harbiy qo'shigand qo'mondand etib tayinlab, Farg'onagand hujum qilishgand, Ershidand otlarni olib kelishni yuborgand.

Li Guangli bir necha o'n ming odam bilan Farg'ona zaminigand yetib borib, avvaligand Yivecheng (hozirgi O'zgan shahri)ni zabt etmoqchi bo'lgand, lekin uni ololmay orqaga qaytgand. Dunxuanggand yetib kelgandand soni atigi 12 kishini tashkil qilgand. Uning ishini eplolmagandand imperator qattiq xafa bo'lib, ularni Yuymen chegara darvozasidand o'tishigand ijozat bermagand.

Facebookning «O'ZBEKISTON TARIXI» guruhidand olindi.

Mahbuba KARIMOVA



ALISHMASMAN

Jonim Vatan, jon tomiring
Tillolarga alishmasman.
Shiroq o'tgan sahrularing
Daryolarga alishmasman.

Ko'zim Vatan, qaro ko'zing
Qiyolarga alishmasman.
Qahratonda qorlaring
Javzolarga alishmasman.

Navoiyning hasratlarin
Havolarga alishmasman.
Shoh Boburning furqatlarin
Ro'yolarga alishmasman.

Qadrim Vatan, dil daftaring
Insholarga alishmasman.
Zangi otam duolarin
Shifolarga alishmasman.

Jonim Vatan, jon tomiring
Tillolarga alishmasman.
Shiroq o'tgan sahrularing
Daryolarga alishmasman.

Ota, umrim o'tgani sayin
Yaqin keldi Vatan degan so'z.
Shundan, o'tgan kunim azizdir,
Shundan, kelar kunlarim aziz.

Vatan degan so'z bilan bog'liq
Qayg'um go'zal, quvonchim go'zal.
Ko'zlarimning issigi shu so'z,
Hayotimning mazmuni o'shal.

Buloqlari dardimga darmon,
Shamollari oltin tarog'im.
Tuproq'ini ko'zimga surtsam
Ravshan tortar chashmi qarog'im.

Vatan desam onam keladi
Oq ro'mollar o'rab boshiga.
Men onamdan qarzdor kabi,
Qarzdorman shu so'z oldida.

Kitob bilan nonni teng ko'rgan
Ulug'lar darxonasi - Vatan!
Mehnat bilan sochi oqargan
Onaginam onasi - Vatan!

Humo qushi bezab turibdi,
Qomusining hoshiyasini.
Tongda turib kuylar qushlar ham
O'zbekiston madhiyasini.

AYOLGA BAXT BERING

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Gar ko'zlari kulib tursa-da,
Bo'g'zining ostida necha ming hasrat,
Oy yuzlari kulib tursa-da...

Ko'nglini ko'taring hech bo'lmaganda,
Qo'lini silashga shafaot toping.
Yig'lab turganida hech bo'lmaganda,
Yoshini artishga muruvvat toping.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafaot toping.
Chaqaqoq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi nur toping, hidoyat toping.
Illohi baxt bergan ayol yonidan
Baxtiyor o'tmoqqa inoyat toping.

Illohi qalqonsiz, illoh qo'rg'onsiz
G'iybatlar yirtmasin ko'yakkinasin.
Illohi hushyorsiz, illoh bedorsiz,
Iltlar tishlamasin yurakkinasin.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Tog' qimirlab, toshlar so'zga kirsada,
Ayolga baxt bering, saodat bering, —
Oltmishga kirsada, yuzga kirsada.

SAVOI BERING!

? - Maktabda kimlar bepul darsliklar bilan ta'minlanadi? Shu haqda ma'lumot bersangiz?

Salima Avezova,
Jizzax viloyati

- Birinchi sinf, «Mehribonlik» uyi, maxsus maktab, maktab-internatlari va ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar o'quvchilari maktabning kutubxona jam'armasi tomonidan darsliklar to'plami bilan bepul ta'minlanadi. Bunda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar o'quvchilari ro'yxati 1-sentyabrgacha fuqarolar yig'ini iltimosnomasi va ota-onalar hamda pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Axborot xizmati

? - Kopirayterlik kasbi haqida ko'p eshityapman. Bu kasb egalari asosan nima ish bilan shug'ullanadi?

Yulduz Umarova, Angor tumani

- Kopirayting (copywriting - ing.) «matn yozish» degan ma'noni anglatadi. Kopirayterlar - tijorat matnlarini yaratuvchilardir. Kopirayterlardan savodxonlik, fakteching, kontentni keng tarqata bilish, tahlil qila olish, jamoa tarkibida ishlash, diqqat bilan tinglay olish, mas'uliyatli bo'lish, kuchli empatiyaga ega bo'lish talab etiladi.

Azizbek Berdiyev,
SMM mutaxassisi

? - Ishxonamning bosh hisobchisi menga 3 oy davomida ortiqcha pul to'langani va bu endi ish haqimdan qaytarilishini aytdi. Hisobchining bu harakati qonuniymi?

Renata Gabdullina, Buxoro shahri

- Mehnat kodeksining 269-moddasiga asosan, xodimga ortiqcha to'langan ish haqi undan undirilishi mumkin emas. Ya'ni, xodimga ortiqcha to'langan ish haqini ish beruvchi qaytarib olmaydi. Ammo kodeksda istisno holatlar ham bor. Ya'ni, hisoblashdagi xatolik, agar yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organ tomonidan xodimning mehnat normalarini bajarmaganlikdagi aybi e'tirof etilgan bo'lsa va xodimning sud tomonidan belgilangan g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) sababli xodimga ortiqcha ish haqi to'langan bo'lsa.

Yurist_bloger rasmiy telegram kanali

? - Xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan tibbiyot oliy o'quv yurtlari va texnikumlar talabalar uchun stipendiya joriy etildi deb eshitdim. Shu to'g'rimi?

Firdavs Yakubov, talaba

- Ha, to'g'ri. Sog'liqni saqlash vazirining 2023-yil 11-avgustdagi buyrug'iga ko'ra, 2023/2024-o'quv yilidan tibbiyot oliy ta'lim muassasalari hamda Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumlarida tahsil oluvchi, xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirgan talabalar rag'batlantirib boriladi. Buning uchun kamida 7,5 ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi (IELTS Academic) hamda nemis va fransuz tilini bilish darajasini belgilovchi S1 xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan talabalarga 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab, ularning sertifikatini amal qilish davrida bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida har oylik stipendiya to'lab borish tartibi joriy etildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmati



? - Yaqinda «Qomus» so'zining bir nechta ma'nosi borligi haqida o'qib goldim. Bu so'zning asl ma'nosi nima va u qay hollarda ishlatilsa to'g'ri bo'ladi?

Hulkar Samandarova,
Samarqand shahri

- Qomus so'zining asl ma'nosi XIV asr - XV asr boshida Eronda yashagan mashhur tilshunos bilan bog'liq. Nisbasi - Feruzobodiy, lekin ko'proq Fayruzobodiy sifatida mashhur bo'lgan arab tili bo'yicha mutaxassis arab tilining o'sha davrdagi eng yirik lug'ati bo'lmish «Qomus al-muhit»ni tuzadi. Aynan shu lug'atdan so'ng barcha lug'atlar «qomus» deb atala boshlanadi. Ushbu so'zning asl ma'nosi esa okeandir.

Eldor Asanov, tilshunos

? - Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida faoliyat yurituvchi tashkilotda ishlayman. Lekin menga mehnat ta'tili berilmasligini aytishdi. Shu to'g'rimi?

Nodira Shermuhammedova,
Toshkent shahri

- Noto'g'ri. Mehnat kodeksining 217-moddasida har yilgi asosiy mehnat ta'tili 21 kalendar kundan kam bo'lmashligi belgilangan. Shunga ko'ra, YATTLar ham o'z xodimlariga har yili 21 kalendar kundan kam bo'lmagan asosiy mehnat ta'tili berishi shart.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Matbuot xizmati

✓ Tug'ilgan kun muborak!

«BESH TASHABBUS OLIMPIADASI»NING IKKINCHI MAVSUMI BOSHLANMOQDA

Joriy yilning aprel-iyun oylarida yurtimizda o'tkazilgan «Besh tashabbus olimpiadasi» birinchi mavsumidagi musobaqalarda 3 million 500 ming nafar yosh ishtirok etdi. Shiddatli bellashuvlar natijasida 2 254 nafar iqtidorli sportchi saralab olindi.

Kuni kecha Yoshlar siyosati va sport vazirligi «Besh tashabbus olimpiadasi»ning ikkinchi mavsumi sentyabr oyidan boshlanayotgani haqidagi xabarni hamda mazkur tadbirlar doirasidagi tanlovlar shartlarini e'lon qildi.

Unga ko'ra, joriy yilning sentyabr - dekabr oylarida «Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi» tanlovi, «Ichki ishlar vaziri kubogi» uchun voleybol musobaqasi, «Bosh prokuror kubogi» uchun kurash musobaqasi, shuningdek, gimnastada musobaqasi, yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirishga oid «Yosh kitobxon» tanlovi hamda «Zakovat» intellektual o'yini, shu bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan yoshlar o'rtasida «Paralimpiada» sport musobaqalari tashkil etilishi belgilandi.

O'ZA

Inson qadri ulug'lanayotgan, mehnati qadrlanayotgan Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlarni jamiyatga tatbiq etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning siyosiy savodxonligi, faolligini oshirishda munosib hissa qo'shib kelayotgan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Andijon viloyati Kengashi raisi Hamidjon Omonovni tavallud ayomi bilan tahriyatimiz jamoasi nomidan samimiy qutlaymiz!

Mas'uliyat bilan ado etayotgan vazifangizni samarali davom ettirishda sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, kasbiy yuksalish tilaymiz!

Ko'nglini ko'taring hech bo'lmaganda,
Qo'lini silashga shafaot toping.
Yig'lab turganida hech bo'lmaganda,
Yoshini artishga muruvvat toping.

Nogoh yerga tushsa oppoq ro'moli,
Bosib o'tmaslikka shafaot toping.
Chaqaqoq yalagan etaklarini
Toza deb aytishga adolat toping.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Demang yuribdi-ku kulib, jilmayib.
Ayol kulib turib o'lishi mumkin,
Dunyoni olishi mumkin jilmayib.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Illohi nur toping, hidoyat toping.
Illohi baxt bergan ayol yonidan
Baxtiyor o'tmoqqa inoyat toping.

Illohi qalqonsiz, illoh qo'rg'onsiz
G'iybatlar yirtmasin ko'yakkinasin.
Illohi hushyorsiz, illoh bedorsiz,
Iltlar tishlamasin yurakkinasin.

Ayolga baxt bering, saodat bering,
Tog' qimirlab, toshlar so'zga kirsada,
Ayolga baxt bering, saodat bering, —
Oltmishga kirsada, yuzga kirsada.

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV - kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodii ABDURAHMONOV

Tahririyat MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asibek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi - 7 193.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 2 bosma taboq
Buyurtma: G - 816
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 03:00

ISSN 2010-7714
123456